

“OSORI IMOMIYA” – “KALILA VA DIMNA” TARJIMALARI
GULTOJI

Fazliyeva Mohigul Xayriddinovna

Xadichayi Kubro ayollar madrasasi o‘qituvchisi

mohigulfazlieva@gmail.com +998901881162

Annotatsiya. Ushbu tezisda hind xalqi og‘zaki va yozma adabiyoti javohirlaridan biri bo‘lmish “Kalila va Dimna” asarining turkiy tildagi Mulla Temur qalamiga mansub mashhur tarjimasi bo‘lmish “Osori Imomiya” qo‘lyozmasining o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar. “Kalila va Dimna”, “Osori Imomiya”, qo‘lyozma, Mulla Muhammad Temur, Dobshalim, Beydabo, Ibn al-Muqaffa, S.G‘aniyeva, kollofon, unvon, basmala, hamd.

Ko‘p yillik tarixga ega bo‘lgan hind xalqi durdonalaridan “Kalila va Dimna” aslida hind faylasufi va brahmanlari murshidi Beydabo tomonidan podshoh Dobshalimga bag‘ishlab yozilgan bo‘lib, maqsad yo‘ldan adashgan hamda shon-shuhrat ko‘zini ko‘r qilgan shohni to‘g‘ri yo‘lga solish-u bechora xalq dardiga malham bo‘lish edi. Ana shunday qimmatli manbaning o‘zbek tilida o‘rganilishi va boshqa tildagi variantlari bilan muqoyasa qilinishi hozirgi kundagi dolzarb vazifalarimizdan biridir. Shu vaqtga qadar asarning o‘zbek matnshunos olimlari tomonidan o‘rganilgan tadqiqotlarga nazar tashlasak, ishning juda ozchilik olimlar tomonidan o‘rganilganligining guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa, “Kalila va Dimna”ning hozirda mavjud Suyima G‘aniyeva tomonidan tayyorlangan yagona nashr variantiga diqqat qaratsak, asar Erondagi Abdulazim G‘arib tomonidan nashr etilgan varianti va ozarbayjon nusxasi asosida tarjima qilingan bo‘lib, aynan o‘zbek tilidagi nusxalari asosida tabdil qilinib, ishlangan tadqiqot mavjud emasligini ko‘ramiz[1,7]. Shunday ekan, “Kalila va Dimna” asari matniy tadqiqi, asar tavsifi hamda tarkibiy tuzilishi, turli tillarda bitilgan qo‘lyozma va toshbosma variantlarining qiyosiy tahlili, shuningdek, uning turkiy nusxalaridan eng qadimiyrog‘i “Osori Imomiya” tarjimasini o‘rganish kabi masalalar ishimizning dolzarbliligini belgilovchi asosiy xususiyatlar hisoblanadi.

Kitobning turli tillarda tarjima qilinishi va o‘rganilishi uning qanchalik qadri baland tarixiy manba ekanligidan dalolat beradi. Alohida mashhurlikka “Kalila va Dimna” o‘zining paydo bo‘lishidan 300 yil o‘tib ega bo‘ldi. VIII asrda ushbu asarni pahlaviy tilidan Abdulla ibn al-Muqaffa arab tiliga o‘girdi. Uning tarjimasi fasohat-u balog‘atga yo‘g‘rilgan holda qilinganligi uchun yer yuziga mashhur bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Uning bu kitobi oddiy tarjima bo‘lib qolmasdan, muallif tomonidan muqaddima-yu turli ilovalar, hikmatlar bilan boyitilgan edi. Matn, asosan, uch qismdan iborat bo‘lib, asl hind tilidan olingan hikoyatlar va qo‘shimcha ilovalar, pahlaviydan tarjima qilingan voqealar (hangomalar) hamda Ibn Muqaffaning o‘zi kiritgan qo‘shimcha izohlardan tashkil topgan[2;14].

XII asrda o'z davrining mashhur adibi Nizomiddin Abulmaoliy Nasrulloh ibn Muqaffaning arab tilidagi tarjimasidan foydalanib, asarni fors-tojik tiliga nazmda o'girdi. Garchand ushbu tarjima Ibn Muqaffa asariga mazmunan o'xshasa-da, uslub va vazn jihatdan o'z zamonasining noyob asarlaridan biri deyish mumkin. Abulmaoliy Nasrulloh pandnoma va hikmatlarga e'tibor qaratishdan tashqari, zamona talabi bilan purhikmat oyat-u masallar bilan boyitdi.

“Kalila va Dimna”ning o'zbek tiliga ilk marta qachon tarjima qilinganligini aytish mushkul. Lekin shu narsa aniqki, O'rta va Yaqin Sharq xalqlari bilan bir turli madaniy hayot kechirgan o'zbek xalqiga bu kitob qadim zamonlardayoq ma'lum bo'lgan. Manbalarning ko'rsatishicha, kitobning ilk turkiy tilidagi tarjimasida ish XIII asrda boshlangan bo'lib, muallifi Muhammad Bakriy hisoblanib, tarjimaning yagona nusxasi London shahridagi Indiya Offis kutubxonasida saqlanmoqda. Ingliz sharqshunosi Etening 1903-yilda Oksford shahrida chop etilgan “Indiya Offis kutubxonasidagi forscha qo'lyozmalar katalogi” nomli maqolasida (471-472) berilgan xabarga qaraganda, tarjimon Iftixoriddin Muhammad Bakriy Sharqiy Turkistondagi mo'g'ul hukmdorlaridan O'qtay Qoon va uning jiyani Mangu Qoonlarga yaqin turgan va bular topshirig'i bilan asarni chig'atoychaga tarjima qilgan[1;6]. Baxtga qarshi Angliyada saqlanayotgan “Kalila va Dimna”ning ushbu tarjimasida to'g'risida Ete o'z maqolasida yuqoridagi qisqa ma'lumot bilan cheklanganidek, ko'p jihatlardan muhim bo'lgan madaniy tariximizning bu qadim yodgorligi haqida manbalarda boshqa ma'lumot uchramaydi.

Keyingi tarjimadagi urinish XVIII asr boshlarida(1718-1719-yillarda) shoir Mulla Muhammad Temur Qoshg'ariy tomonidan amalga oshirilib, u o'z tarjimasini Husayn Voiz Koshifiyning “Anvori Suhayliy”si asosida o'girib, asarga “Osori Imomiya” deb nom beradi.

“Osori Imomiya”ning Toshkent Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida uchta nusxasi mavjud bo'lib, ular 5807, 7451 va 1321 raqamlari ostida asosiy fondga saqlanadi. Shu jumladan, 5807-raqamli qo'lyozmani tahlil qiladigan bo'lsak, tashqi holatidan yaxshi saqlanganligi ma'lum bo'ladi. Faqatgina ba'zi sahifalarining chetlari qayrilib yirtilgan, birinchi sahifaning ko'rinishi qoniqarli emas. Shuningdek, oxirgi ayrim betlariga suv tegib namlangan. Ammo bu holat yozuvni bimalol o'qishimiz uchun to'sqinlik qila olmaydi.

Kitobning ikkinchi sahifasida berilgan *unvon* (ilk sahifaning uchdan biriga zarhal rangda ishlangan bezakli naqsh) da ko'k, qizil va zarhal rangdagi gullar bilan bezatilgan naqshlar mavjud[3,2-a]. Qo'lyozmaning boshlanishida jadval keltirilmasa ham oxirgi boblarda ba'zi baytlar ikki va uch ustunli jadval asosida berilgan. Bundan tashqari, *hoshiya* (qo'lyozma matn tevaragidagi bo'sh joy) mavjud bo'lib, unda ba'zi tushib qoldirilgan so'zlar qayd qilingan[3,2-a]. Kitobda *ichki unvonlar* (bob, bo'lim yoki qandaydir qismning alohida rangda yoki shaklda ajratib yozilishi) ham aniq va ravshan tarzda qizil rangli yozuvlar orqali ajratib berilgan. Bular orqali biz asar boblarini va uning tarkibidagi hikoya, ruboiy, bayt, masnaviy, misra va qit'alarni osongina ajratib olamiz.

Kitob oxirida kollofon (asar xotimasi)da muallif va ko'chirilgan yili haqidagi ma'lumotlar o'zbek va fors tillarida berilgan. Muhammad Siddiq ushbu qo'lyozmani


juda chiroyli yozuvda nasta'liq xatida bitgan bo'lib, qo'lyozmaning umumiy hajmi 336 vaqordan tashkil topgan. Yozuvlar qatori 17tadan bo'lib, sahifa 26/30 o'lchamidadir.

Kitobning ichki tavsifiga nazar tashlasak, asar qadim qo'lyozma kitoblar boshlanmasi kabi بسم الله الرحمن الرحيم ya'ni, "Mehribon va rahmli Allohning nomi bilan boshlayman" kalimalari bilan ochilgan [3,3-a].



Ushbu unvondagi *basmala* deb nomlanadigan bu kalima *odobi tasnif* qoidasiga ko'ra barcha asarlarda asosiy matn boshlanishidan avval arab tilida berilgan [6;86]. Basmaladan so'ng, odatdagidek, asar Allohga hamd bilan boshlanib, bunda yaratuvchini ulug'lash va yolg'iz Ugina maqtovg'a munosib Zot ekanligi e'tirof etilgan. Bunda adiblik salohiyatiga ko'ra hamdlar asar (bob, fasl)ning mazmunidan kelib chiqib ham bayon etilishi mumkin. "Kalila va Dimna" da ham asarning boshlanishida berilgan hamddan tashqari ba'zi boblar boshi va o'rtalarida ham bu holni kuzatish mumkin.

Ushbu turkiy nusxa quyidagi jumlar bilan boshlanadi:




Tabdili: "Hazrat hakim mutlaqkim, hikmati ravshandur, aning hamd-u sanosi latifalarining vazifalari *Va in min shayyin illa yusabbihu bihamdih hukmi* (iso surasi, 44) birla jami' balohat mavjudotlari tillarig'a joriy va doyr, benihoyatlari foydalari *Va a'to kulla shayin xolqoh* (Toha surasi, 52) qoidasi birla yer-u ko'k maxluqotlarining axborlarig'a sori va soyirdurur" [3,2-a]. Ushbu asar boshlanmasidan ko'rinib turibdiki, asarning hamd va na't qismida deyarli har bir sahifada fikrning izohi sifatida Qur'on sura va oyatlaridan parcha keltiriladi.

Hamdda kelgan xoliq, maxluqot, tasvir, hazrat hakim, mutlaq, masnu'ot kabi atamalarning barchasi yaratish fe'li bilan bog'liq tushunchalardir. Hamddan so'ng Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom eslanib, u zotga salovot aytilgan. Adabiy matnlardagi bunday bag'ishlovlarga na't, sano, durur degan nomlar berilgan. Odbi tasnif qoidalaridan yana biri hamd va na'tdan so'ng kitobning yozilish sababini bayon qilish bo'lib, bu *sababi ta'lif* deyiladi [6;87]. Asarning ushbu qismida "Kalila va

Dimna”ning yozilish sababi va Mulla Temurgacha qilingan tarjimalar hamda ularning mualliflari xususida bayonlari mavjud.

Sababi ta’lifdan so‘ng, odatda, sarlavhalar (bob, fasl, qismlar) o‘rin olib, bunda asarning asosiy voqea bayoni keltiriladi. “Kalila va Dimna” 14ta katta bobdan iborat bo‘lib, unda salmoqli darajada muhim ma’lumotlar bayon qilinadi. Har bir bobning tarkibi – asarning davomiy bayoni, hikoyatlar, qit’a, ruboiy, misra, bayt kabi bo‘linmalardan tarkib topgan.

Kitobning eng so‘ngida quyidagi baytlarni o‘qiymiz:



Tabdili: Shukrililloh, az inoyathoyi rabbi mustaon,

Yorkand az hokimi sohibqiron shud dar omon.

Mirza Mihammad Husayn an bayzayi oliy nasab,

Hasbi farzand rashidash Tojibek komiron.

Dar qalam ovard Sidiq in kitob az hukmi u,

Kard andar boraash in’omu ehson begaron [3,334-a].

Shu sahifada, bu misralardan quyiroqda kotib o‘zini “Kotibul huruf faqirul haqir Muhammad Siddiq” deb ham ko‘rsatib o‘tadi. Demak, “Kalila va Dimna”ning bu nusxasi XIX asr boshlarida Yorkentda tuzilganidir.

Mulla Temur tarjimasini til jihatidan nihoyatda xarakterlidir. Kitob XVIII asr boshlarida Qashqarda dunyoga kelgan bo‘lishiga qaramay, uning tili o‘zbekcha (boshqacha aytganda, turkiy yoki chig‘atoycha)dir. Tarjima tilining grammatik qurilishi, leksik tuzilishi, so‘zlarning semantik qo‘llanishi shuni ko‘rsatib turadi. Masalaga til taraqqiyoti nuqtayi nazaridan yondashsak, Qashqarda XVIII asr boshlarida “Osori Imomiya”ning “chig‘atoycha” deb atalgan qadimgi o‘zbekchada yozilgan bo‘lishi u qadar ajablanarli hol emas. Chunki qadimgi adabiy yodgorliklarning bildirishicha, sharqshunoslik ilmida hukmronlik qiluvchi fikrga ko‘ra, Sharqiy Turkistonda “chig‘atoycha” deb ataluvchi qadimgi o‘zbek tili islomdan so‘ng adabiy til sifatida tarqala boshlagan, so‘nggi asrlarda esa (XVIII-XIX asrlarda) chig‘atoycha Qashqarda adabiy til, “kitob tili” sifatida uyg‘ur tilini siqib chiqarib, asosiy o‘rinni egallab olganidir. Adabiy til tarixi jihatdan juda muhim hisoblangan bu jarayon qachondan boshlanganini aniqlash qiyin, har holda XII asrda bu jarayonning bor bo‘lganligini yodgorliklar ko‘rsatib turadi. Masalan, XII asrga oid bo‘lgan “Hibatul-haqoyiq” asarining muallifi Ahmad Yugnakiyning ta’kidlashiga

qaraganda, u o'z asarini "Qashqar tili"da yozgandirki, bu til "chig'atoycha"ning ma'lum tarixiy taraqqiyotidagi ko'rinishidan boshqa narsa emas [4;284].

Sharq adabiyoti masalalari bilan shug'ullanuvchi atoqli rus akademigi N.I.Konrad o'zining "Adabiy munosabatlar masalasiga doir" nomli maqolasida dunyo adabiyotidagi mashhur sayyor syujetlar xususida gapirib, "Kalila va Dimna"ga to'xtaladi va uning dunyo madaniy tillarida tarqalishini tarjima emas, balki yagona bir syujetning mustaqil shakllari, deb qabul qilish to'g'riroq ekanligini bayon qiladi. [5;130]

Shubhasiz, "Kalila va Dimna" ning asosini tashkil qiluvchi boblar - masallar hindchada qanday bo'lsa, o'zbekchada ham, asosan, shunday ko'rinadi. Bu asarning o'zbek kitobxonlari orasida shuhrat qozonishi bekorga emas, albatta. Hind masalining chuqur falsafiy mazmuni, yuqori axloqiy-tarbiyaviy asoslari, jamiyat va inson hayotidan olingan rang-barang turli lavhalar, favqulodda zo'r badiiy mahoratdan dalolat berib turuvchi adabiy uslub asrlar bo'yi o'zbek kitobxonlari diqqatini o'ziga tortib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Калила ва Димна". Ҳинд халқ эпоси. (С.Ғаниева таржимаси). – Тошкент: Истиклол, 1994. –
2. Калила и Димна. Абдуллах ибн ал Мукаффа (перевод с арабского Б. Шидфар) – Москва: Художественная литература, 1986. –
3. Kalila va Dimna. Qo'lyozma. O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Asosiy fond – №5807.
4. Каримов Ғ. Ҳинд масали "Калила ва Димна"нинг ўзбекча версиялари. – Тошкент: Ўзбек адабиёти, 1960.
5. Конрад Н.И. К вопросу литературных связей. Известия Академии Наук, Отделения литературы и языка.–Том XVI, вып.4, Москва,1957. –
6. Zohidov R. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari. – Toshkent: Yashil yarroq, 2023.
7. Зоҳидов В. Юксак нафосат ва мангу ҳикмат обидаси. "Калила ва Димна". – Тошкент: Ўзбек адабиёти нашриёти, 1976. –